


2020- YILDA NAVOIY VILOYATIDA TURIZM

So'nggi yillarda mamlakat milliy iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni izchil amalga oshirilmoqda, bu esa uning tez rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, daromadlarni oshirish, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish, shuningdek, investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan.



2018-2020 yillarda turistik firma va tashkilotlar faoliyati



2020- yilda faoliyat yuritgan turistik firmalar soni 4 tani tashkil qilgan. Ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 890 nafarni tashkil qilgan.





2020- yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni, birlikda

**Mehmonxona va shunga
o'xshash joylashtirish
vositalari**

Mehmonxonalar
Motellar
Mehmonxona tipidagi
pansionatlar
Qisqa muddat yashash uchun
boshqa joylar

**Ixtisoslashtirilgan
joylashtirish vositalari**

Dam olish pensionatlari
Dam olish uylari, zonolari
Kemping
Sanatoriyalar
Turistik bazalar
Turar joylarning boshqa turlari



**Individual
joylashtirish vositalari**

Mehmon uylari
Dala hovli
O'tov lagerlari
Turar joylarning boshqa turlari

**Boshqa
joylashtirish vositalari**

Xostellar (yoshlar
mehmonxonalari)
Yotoqxonalar

Jamoaviy joylashtirish vositalari mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari (34 ta), ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari (11 ta), individual joylashtirish vositalari (22 ta) va boshqa joylashtirish vositalaridan (7 ta) iborat.



2020- yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari nomer fondi, birlikda


Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari nomerlari



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari tarkibiga mehmonxona (32 ta), motel (1 ta), pansionat (mehmonxona tipidagi) va qisqa muddat yashash uchun mo'ljallangan boshqa joylar (1 ta) kiradi. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalaridagi nomerlar 906 tani, joylar 1 723 tani tashkil etadi. Joylashtirilgan shaxslar 26 171 kishini tashkil etgan bo'lib, ularning 92,0 % O'zbekiston fuqarolari, 3,9 % MDH davlatlari fuqarolari va qolgan 4,1 % uzoq xorijiy davlat fuqarolaridan iborat. Tunab qolishlar soni 64 172 tani tashkil etdi.



2020-yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining
nomer fondi



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari dam olish pansionatlari, dam olish uylari, bazalari (2 ta), kemping (1 ta), katta yoshlilar uchun sanatoriya (2 ta), bolalar uchun sanatoriya (1 ta), ota-onasi bilan bo'lgan bolalar uchun sanatoriya, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sog'lomlashtirish sanatoriya oromgohi, sanatoriya – profilaktoriya (4 ta), sanatoriya-kurort muassasalarining boshqa turlari, turistik baza (1 ta), boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalaridan iborat. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari nomer fondi 559 nomerlar (xonalar) va 1 181 joylardan iborat. Joylashtirilgan shaxslar soni 3 199 kishini tashkil etadi. Tunab qolishlar soni 52 339 tani tashkil etdi.



2020-yilda individual va boshqa joylashtirish vositalarining
nomer fondi, birlikda



Individual joylashtirish vositalari mehmon uylari (19 ta), dala hovli, o'tov lagerlari (3 ta), individual joylashtirish vositalarining boshqa turlaridan iborat. Individual joylashtirish vositalari nomer fondi 121 nomerlar (xonalar) va 380 ta joylardan tashkil topgan. Joylashtirilgan shaxslar soni 676 kishini tashkil etadi. Tunab qolishlar soni 4 620 tani tashkil etdi.

Boshqa joylashtirish vositalari xostellar (5 ta), yotoqxonalardan (2 ta) iborat. Boshqa joylashtirish vositalari nomer fondi 159 nomerlar (xonalar) va 261 ta joylardan tashkil topgan. Joylashtirilgan shaxslar soni 1 865 kishini tashkil etadi. Tunab qolishlar soni 40 586 tani tashkil etdi.



2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar 26 171 nafarni tashkil etgan bo'lib, ularning 95,1 % ish va kasbga oid maqsadlar yuzasidan, 1,9 % tranzit va boshqa shaxsiy maqsadida, 1,4 % ta'til va dam olish maqsadida, 0,7 % do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, 0,7 % ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, 0,1 % ziyosat maqsadida, 0,1 % davolanish va sog'lomlashtirish maqsadida kelgan.



Turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, 1 – 3 kun tunab qolganlar 88,6 %, 4 – 7 kun tunab qolganlar 7,0 %, 8 – 28 kun tunab qolganlar 3,6 %, 29 – 91 kun tunab qolganlar 0,6 %, 92 – 182 kun tunab qolganlar 0,2 %, 183 – 365 kun tunab qolganlar 0,01 % ni tashkil etadi.





2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar 3 199 nafarni tashkil etgan bo'lib, 98,1 % O'zbekiston fuqarolari, 1,9 % uzoq xorijiy mamlakat fuqarolarini tashkil etdi. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning 96,2 % davolanish va sog'lomlashtirish maqsadida, 3,8 % bo'sh vaqt va dam olish maqsadida tashrif buyurgan.






2020-yilda turish muddati bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

1-3 kun tunash 120

4-7 kun tunash 61

8-28 kun tunash 2315

29-91 kun tunash 703



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, 1 – 3 kun tunab qolganlar 3,7 %, 4 – 7 kun tunab qolganlar 1,9 %, 8 – 28 kun tunab qolganlar 72,4 %, 29 – 91 kun tunab qolganlar 22,0 % tashkil etadi.

2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha individual joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

	Jami	Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish	Do'stlar va qarindoshlardan xabar olish	Ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar
Joylashtirilgan shaxslar, jami	676	157	2	517
<i>shu jumladan fuqarolar:</i>				
O'zbekistondan	530	155	2	373
MDH mamlakatlaridan	79	2	-	77
Xorijiy davlatlardan	67	-	-	67

Individual joylashtirish vositalarida 676 nafar kishi joylashtirilgan, ulardan ta'til, ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bo'yicha – 76,5 %, bo'sh vaqt va dam olish maqsadi bo'yicha – 23,2 %, do'stlar va qarindoshlardan xabar olish – 0,3 %.

2020- yilda turish muddati bo'yicha individual joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

	Jami	1-3 kun tunash	4 – 7 kun tunash	8 – 28 kun tunash	29 – 91 kun tunash	92 – 182 kun tunash
Joylashtirilgan shaxslar, jami	676	501	85	43	37	10
<i>shu jumladan fuqarolar:</i>						
O'zbekistondan	530	447	68	11	4	-
MDH mamlakatlaridan	79	29	5	23	22	-
Xorijiy davlatlardan	67	25	12	9	11	10

Jami joylashtirilgan shaxslar sonidan joylashtirilgan shaxslarning 74,1 % kishi 1 - 3 kun tunagan, 12,6 % kishi 4 - 7 kun tunagan, 6,4 % kishi 8 - 28 kun tunagan, 5,5 % kishi 29 - 91 kun tunagan, 1,5 % kishi 92 - 182 kun tunagan.

2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha boshqa turdagi joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

Boshqa turdagi joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar 1 865 nafarni tashkil etgan bo'lib, ulardan O'zbekiston fuqarolari – 92,2 %, MDH davlatlari fuqarolari – 2,7 %, uzoq xorijiy mamlakat fuqarolari – 5,1 % ni tashkil etdi. Boshqa turdagi joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning 100,0 % ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bo'yicha tashrif buyurgan.

2020- yilda turish muddati bo'yicha boshqa turdagi joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

	Jami	1-3 kun tunash	4 – 7 kun tunash	8 – 28 kun tunash	29 – 91 kun tunash	183 – 365 kun tunash
Joylashtirilgan shaxslar, jami	1 865	1143	220	393	23	86
<i>shu jumladan fuqarolar:</i>						
O'zbekistondan	1 718	1131	214	364	9	-
MDH mamlakatlaridan	51	12	4	21	14	-
Xorijiy davlatlardan	96	-	2	8	-	86

Jami joylashtirilgan shaxslar sonidan joylashtirilgan shaxslarning 61,3 % kishi 1 - 3 kun tunagan, 11,8 % kishi 4 - 7 kun tunagan, 21,1 % kishi 8 - 28 kun tunagan, 1,2 % kishi 29 - 91 kun tunagan, 4,6 % kishi 183 - 365 kun tunagan.

2020- yilda xodimlar soni, kishi
(o'rindoshlarsiz)

Jami	Ulardan:				
	turistik firma va tashkilotlarda	mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida	ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida	individual joylashtirish vositalarida	boshqa turdagi joylashtirish vositalarida
815	10	278	467	12	48

2020- yilda xodimlar soni (o'rindoshlarsiz) turistik firma va tashkilotlarda 10 kishini, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida – 278 kishini, ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida – 467 kishini, individual joylashtirish vositalarida – 12 kishini, boshqa turdagi joylashtirish vositalarida – 48 kishini tashkil qilgan.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-54-98